

**O'SMIRLIK DAVRI PSIXOLOGIYASINING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

Jo'rayeva Dilnoza Rustamjonovna

Andijon viloyati Baliqchi tumani

34-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi-psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari, ushbu davrda yuz beradigan emotsional va ijtimoiy o'zgarishlar hamda shaxs shakllanishining muhim jihatlari yoritiladi. Shuningdek, o'smirlarning ruhiy rivojlanishida oila, maktab va ijtimoiy muhitning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, psixologiya, emotsional rivojlanish, shaxs shakllanishi, o'ziga ishonch, muloqot, ijtimoiy muhit, o'quvchi.

KIRISH

O'smirlik davri inson hayotidagi murakkab va mas'uliyatli bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davr odatda 11–16 yosh oralig'ini qamrab olib, bolalikdan kattalik davriga o'tish jarayoni bilan xarakterlanadi. Bu davrda o'smirning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida katta o'zgarishlar yuz beradi.

O'smirlik davrining asosiy xususiyatlaridan biri emotsional beqarorlikdir. O'smirlarning kayfiyati tez-tez o'zgarishi, hissiyotlarning kuchli namoyon bo'lishi va ta'sirchanlikning ortishi kuzatiladi. Bu davrda o'smir o'z shaxsini anglashga intiladi. U o'zining imkoniyatlari, qiziqishlari va jamiyatdagi o'rnini tushunishga harakat qiladi. Natijada mustaqillikka bo'lgan ehtiyoj kuchayadi.

Tengdoshlar bilan muloqot o'smirlik davrida alohida ahamiyat kasb etadi. O'smir uchun do'stlarning fikri muhim bo'lib, jamoada o'z o'rnini topishga intiladi.

Ota-ona bilan munosabatlarda ham ayrim o'zgarishlar kuzatiladi. O'smir erkinlikka intilgani sababli ba'zan kattalar bilan tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Psixologik jihatdan o'ziga ishonch va o'zini baholash hissi shakllanadi. O'smir muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikka juda sezgir bo'ladi.

Bu davrda qiziqish va qobiliyatlar faol rivojlanadi. Sport, san'at, fan yoki boshqa faoliyatlarga moyillik kuchayishi mumkin. O'smirlik davrida stress va xavotir holatlari ham ko'proq uchraydi. O'qishdagi bosim, tengdoshlar bilan munosabat va oilaviy muammolar ruhiy holatga ta'sir qiladi. Maktab psixologi va ota-onaning qo'llab-quvvatlashi o'smirning sog'lom psixologik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ochiq muloqot va tushunish muhiti o'smirning o'z muammolarini erkin aytishiga yordam beradi.

Shuningdek, o'smirlarni foydali faoliyatlarga jalb qilish ularning ijobiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Sport, ijodiy mashg'ulotlar va kitobxonlik emotsional barqarorlikni mustahkamlaydi. O'smirlik davri "*O'tish davri*", "*Krizis davri*", "*Qiyin davr*" kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki bu yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatlaridagi muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaslik, psixik portlash hollari ham kuzatiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o'zining ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun u kuchli, qo'rqmas va epchil bo'lishga intiladi. Tarbiyachilar ham o'z tarbiyalanuvchilari xuddi shunday bo'lishlarini istaydilar, ammo ular ana shu fazilatlarning faqat «kerakligi» uchun shunday bo'lishini istaydilar. Ana shunday «xohlayman» va «kerak» o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ba'zan oilada, maktabda, keskin ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Tarbiyalangan odamda «xohlayman» fakat «kerak»ni bajarish orqaligina amalga oshiriladi. Agar o'smir bola tushunishga o'rgatilmagan bo'lsa va «kerak» bo'lgan narsani bajarishga odatlanmagan bo'lsa, u o'zboshimchaligini namoyon qilish orqali tarbiyachilarning talablariga qarshilik qiladi hamda o'zining shaxsiy asoslanilmagan xohishlari asosida ish tutadi. O'smirning yangi huquqlarga da'vosi, avvalo, kattalar bilan o'zaro munosabatlarning butun

muhitiga oid bo‘ladi. O‘smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko‘rsata boshlaydi: uning mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo‘naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u norozilik bildiradi.

O‘smirlik davriga kimningdir xatti-harakatini *imitatsiya* qilish xosdir. Ko‘pincha ular o‘zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga imitatsiya, taqlid qiladilar. O‘smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin. O‘smir katta odam, Shuningdek, chekuvchi, ichuvchi singari yangi rollarda o‘zini noqulay his qiladi. Psixik rivoji jihatidan bolalarga yaqin, lekin ehtiyojlari jihatidan kattalarga yaqin bo‘lgan o‘smirda juda ko‘p noqulay va tashvishga tushuvchi holatlar bo‘ladi va ular o‘smirda krizisni yuzaga keltirib chiqaradi. Bu krizis o‘smirning ma’naviy o‘sishi, Shuningdek psixikasidagi o‘zgarishlar bilan ham bog‘liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqei o‘zgaradi, o‘zining yaqinlari, do‘stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o‘zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko‘pgina o‘smirlarda o‘zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o‘zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga to‘g‘ri kelmayotganligi o‘smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o‘smirda o‘zi haqida salbiy fikr va qo‘rquvni yuzaga keltirishi mumkin.

Ba’zi o‘smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, shuningdek, otanasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo‘ladi va o‘smirlik davri krizisi yuzaga keladi. Krizis boladagi mavjud tushkunlik, yolg‘izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o‘jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning kechishida namoyon bo‘ladi. Bunday paytlarda u o‘zi singari katta fiziologik, psixologik o‘zgarishlar kechayotgan o‘rtog‘i bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadi. Do‘sti o‘smirga ijobiy ta’sir qiladimi yoki uni

yo‘ldan urib, yomon ta‘sir qiladimi - bu narsa uning axloqiy qiyofasi bilan bog‘liq.

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va asosiy vositalarni jadal yangilash zarurati sharoitida lizing xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsiya faoliyatini moliyalashtirish shakli sifatida alohida ahamiyatga ega.Zamonaviy dunyoda oila yangi shakllarga ega va bilan taqqoslaganda sezilarli darajada o'zgartirilgan oldingi avlodlar davomida qabul qilingan oilaviy munosabatlarning an'anaviy shakllari.

O‘smirlik davrida o‘qish malakalari, yozma va monologik nutq jadal rivojlanadi. 5-sinfdan boshlab to 9-sinfgacha o‘qish to‘g‘ri, tez va ifodali bo‘lish darajasidan, yoddan ifodali, ta‘sirli aytib bera olish darajasigacha ko‘tariladi. Monologik nutq esa asardagi kichik bir parchani qayta so‘zlab berishdan, mustaqil ravishda nutq va chiqishlar tayyorlash, og‘zaki mulohaza yuritish, fikr bildirish va ularni asoslab berishgacha o‘zgaradi. Yozma nutq ham rivojlangan holda o‘smirlar endi ularga berilgan erkin mavzu bo‘yicha mustaqil holda insho yoza oladilar. O‘smirlarning nutqi to‘la tafakkur bilan bog‘liq holatida amalga oshiriladi. 5-6 sinflardagi o‘quvchilar og‘zaki va yozma matn uchun reja tuzib, unga amal qila oladilar. O‘zi yozgan fikrni qayta-qayta o‘qib, o‘z nutqini analiz qilib ko‘rishga majbur qiladi. O‘quvchi yozib bayon qilayotganida, ko‘pincha, bu ishini bir necha marta qayta ko‘rib chiqishga, o‘zgartirishga, to‘ldirishga, qaytadan ishlab chiqishga majbur bo‘ladi.

Bolalarning yozma nutqni egallashlari ularning nutqini o‘stirishda muhim bosqich bo‘ladi. O‘quvchi yozma nutqni to‘g‘ri tushunishni o‘rganib oladi, o‘z fikrlarini yozma nutq holida bayon qilish va boshqalarga tushuntirishni o‘rganadi. Kitob o‘qish va ayniqsa o‘zidagi fikrlarni yozma tarzda ifodalab, bayon qilib berish tilning grammatika tuzilishini egallashda katta ahamiyatga ega. Yozma bayon qilish vaqtida fikrni to‘liq tushuntirib berish zarurligi

o‘quvchini o‘zi yozayotganlarining mazmunigagina diqqat qaratmasdan, balki qanday qilib yozayotganligiga ham e‘tibor berishga majbur etadi.

O‘smirlik davrida xotiraning barcha turlari o‘zining sifat ko‘rsatkichlari asosida jadal rivojlanadi. Bu davrda o‘quvchilarga beriladigan o‘quv materialining hajmi katta bo‘lgani uchun ham uni eslab qolishi yoki bir necha marta takrorlash yo‘li bilan o‘zlashtirish qiyin. O‘smirlik yoshida bolalar o‘qigan va o‘rganganlarini so‘zma-so‘z yodlashdan voz kechib uning ma‘nosiga ko‘ra eslab qolishga harakat qiladilar. Ularda faol ravishda mantiqiy xotira rivojlanib boradi. Mexanik xotiraning rivoji esa birmuncha sustlashadi. Bu esa ba‘zan salbiy xolatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. O‘smirlik davriga kelib yangi fanlar, jumladan, o‘quvchilar eslab qolishi zarur bo‘lgan ma‘lumotlar miqdori ko‘payadi. Ammo mexanik xotiraning sustlashuvi ma‘lumotlarni eslab qolishda muammolarni keltirib chiqaradi va o‘smirlar tomonidan xotiralari zaiflashuvi haqidagi shikoyatlariga va o‘z-o‘zidan o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Buning uchun o‘quvchi o‘quv materialining mazmunini tahlil qilishi, undagi mantiqiy tuzilishni bilishi muhim.

O‘smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo‘la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o‘quvchilar atrof-olamdagi bog‘lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o‘smirning bilishga bo‘lgan qiziqishida keskin rivojlanish sodir bo‘ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi o‘smir tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. Buning ta‘sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyati paydo bo‘ladi. Maktabda o‘qitiladigan fanlar o‘smir uchun o‘z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo‘lib xizmat qiladi. J.Piajening ta‘kidlashicha, “Ijtimoiy hayot uch narsaning ta‘siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi». Bu borada o‘zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o‘z-o‘zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlik davri shaxsning shakllanishidagi muhim bosqich hisoblanadi. To‘g‘ri psixologik yondashuv va qo‘llab-quvvatlash orqali o‘smirlarning sog‘lom rivojlanishini ta‘minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017.
3. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
4. Nemov R.S. Psixologiya. – Moskva: VLADOS, 2015.
5. Zimnyaya I.A. Pedagogik psixologiya. – Moskva, 2014. Z.Nishonova, D.Abdullayeva, G.Baykunosova. O‘smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiya
6. G‘aniyeva.X.A. Psixodiagnostika. 2007
7. Qisqacha psixologik lug‘at. - Rostov-na-Donu: FENİKS. L.A.Karpenko, A.V.Petrovskiy, M.G.Yaroshevskiy. 1998.